Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
FILOLOGIYA

HAMZA NASRIY ASARLARIDA USLUBNING O'ZIGA XOSLIGI

Sitora Xayrullo qizi Shirinova*
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti tayanch doktoranti
✉ sitorashirinovadd95952020@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Hamza nasriy asarlaridagi uslubiy xilma-xilliklar tahlil qilinadi. Har bir ijodkor dunyoni o'z ijodiy tajribasidagi hissiyotlari, olamni idrok etuvchi mahorati bilan ko'radi. Yozuvchi bir asarni yaratishga harakat qilar ekan, avvalo bir qancha vaqtini material to'plashga sarflaydi. So'ng uni o'z nuqtayi nazari, tajribasi vositasida elakdan o'tkazadi. Har qanday asar yaralmasin yozuvchi unda o'z estetik g'oyalarini yuklashga ahamiyat beradi. Yozuvchi faqat yozish bilan emas, ma'lum faktlarni yig'ish, qiyoslash bilan shug'ullanadi. Bu esa uning ijodiy konsepsiyasini boyitadi. Ijodiy uslub ravonligini orttiradi. Cho'lpon "Sen so'zga ipakdan ko'ylak kiygizding" deganda adibning iste'dinining zohiriy ko'rinishiga baho berib, yozuvchi har qanday asar yaratishda "ipakdan ko'ylak kiyishi" ya'ni mukammal tajribaga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tadi.

Kalit so'zlar

Uslub, ijodkor uslubi, jarayon, estetik ideal, jadidchilik, nasr.

DOI: 10.5281/zenodo.21743662

KIRISH

Uslub tushunchasiga oid turlicha qarashlar mavjud. Har bir yozuvchi dunyoni o'z usulida o'zlashtiradi, boyitadi, o'z rakursida shakllantiradi. Har bir yozuvchining o'z tushunish, tushuntirish, his qilish, tasvirlash mahorati alohida shakllanadi. "Uslub (arabcha – tartib, usul, yo'sin) – poetikaning muhim kategoriyalaridan biri, badiiy asarning u yoki bu tarzdagi shakliy qurilishini belgilovchi umumiy prinsip." [1,265] Asar o'zida ijodkor shaxsini aks ettiradi va bu hodisa uslub orqali namoyon bo'ladi. "Uslub – odam" (J.Byuffon) uslub asar shakllanishida ijodkor his qilib, ma'naviy tarozisidan o'tgan narsalarni asarda uyushtiruvchi vositadir.

Adabiyotshunos Abdurauf Fitrat uslub haqida: "Eski adabiyotimizda "Layli va Majnun" dostoni bor. Buni fors shoirlari necha daf'alar yolg'onladilar. Hammasida hikoya birdir, voqea bir turlidir. Biroq forscha – turkcha bilgan kishi Nizomiyni, ondan keyin albatta Jomiyni o'qiydir. Xisravga kelgach, Navoiyni albattaularga tarji qiladi. Fuzuliyni ko'rgach, Navoiyning "Layli va Majnun"ini tokchaga qo'yub, Fuzuliyni o'qishga majbur bo'ladir. Mana bular uslubning ishidir." ta'rif beradi. [2,18] "Har bir yozuvchining dunyoni ijodiy o'zlashtirish jarayonida orttirilgan hissiyotlar tajribasi, olamni o'ziga xos ko'rish, idrok etish, tushunish va tushuntirish yo'li bo'ladi. Yozuvchining mahorati, uslubi va tasvirlash san'ati haqida fikr yuritilganda ham, asosan, shu unsurlardan kelib chiqib ish tutish zarurati tug'iladi." [3,41]

Hamza uslubi ham nasriy asarlarida uning ijodiy izlanishlari natijasi o'laroq dunyo keladi. Yozuvchi uslubida doir masalalarda peyzaj va portret yaratish an'anasiga tayanilishi ustunlik qiladi. Shuningdek, yozuvchining qahramonga munosabati, undan kutiladigan natijasida ham Hamza uslubining o'ziga xosligi anglashiladi. Inson doim go'zallika intiladi, atrofida ham go'zallik yaratishga harakat qiladi. Yozuvchi ham o'z adabiy qahramonlariga eng go'zal ko'rinishni, hislatlarni yuklashga ahamiyat beradi. Navoiy asarlari bilan tanishgan kitobxon e'tibori birinchi navbatda qahramonlar tasvirining mukammalligiga qaratadiki, bu asar qahramonlarini his qilib, tushunib o'qish imkoniyatini oshiradi. Hamza ham o'z asarlari qahramonlarining eng ulug' sifatlarini konkret konteksda tasvirlashga ancha vaqt sarflaydi. Hamza uslubidagi eng ahamiyatli jihat uning nasriy

asarlari qahramonlariga berilgan ismlarida ko‘rinadi. “Yangi saodat” va “Uchrashuv” romanlarining har bir qahramoni asarda ma’lum bir g‘oyani tashiydi. Ulardagi ismlar mohiyatan qahramonning hayotiy qarashlariga mos tushadi. Asarlardagi ayollar obraziga Maryam, Ruzvon, Xadicha, Halima, Nazokatxonim, Halimaxonim, Shamsibibi; erlar obraziga Olimjon, Abdurazzoq, Abdurahmonboy, Ahmadjon kabi obrazlarga berilgan ismlar ularning hayotdagi vazifasiga moslab tanlangan.

Xususan, Maryam *(arabchada Alloh qadrlagan, pokdomon qiz)* hayotda o‘z nomining ma’nosini tashiydi. Boshidan musibatlar yomg‘iri yog‘ilib turganda ham Allohga bo‘lgan ishonchini yo‘qotmaydi. Duo qilib yaxshi kunlarga bo‘lgan umidini uzmaydi. Shu bilan bir qatorda Maryam ismining “juda achchiq, zahar zaqqum” kabi ma’nolari ham bor ekanki, Hamza Maryam timsolida o‘zbek ayollarining boshidan kechirayotgan og‘ir sinovlarini chizib ko‘rsatadi. Ruzvon, Halima, Nazokatxonim, Xadichabonu kabi qahramonlar esa, doim yordamga shay, duogo‘y, har ishda bir hikmat ko‘ruvchi obrazlar sifatida o‘z ismlaridan kelib chiqqan holda asarda shakllantirilgan.

Asarning asosiy bosh qahramoni Olimjon ham o‘z ismi singari ijobiy sifatlar egasi. Hamza Olimjon obrazi orqali Turkiston yoshlarining eski tuzumdan chekingan zamonaviy prototipini shakllantirishga harakat qilgan. Yoshlarni zahmatkash hayot sinovlarida o‘z-o‘zini yo‘qotmaslika undagan. Olimjon singari ilm yo‘lida sabot bilan harakat qilish, halolikka intilish, do‘stga sadoqat, farzandlik burchini bajarish kabi sifatlarni umumlashtirib Olimjon obrazini yaratgan. Hamza o‘z estetik ideali qiyofasini jadid muallimi siymosida yaratdi. Jadid maktablariga tazyiq kuchaygan bu davrda asarga kiritgan bu obraz jadid maktablaridagi ta’limning samarali jihatlarini, eski usuldagi maktablar ta’limining qusur va kamchiliklarini ochishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham Hamza unga ism bermaydi. Jadid muallimi – zamon kishisi. U Hamza orzu qilgan Turkistonning yangi ilm-ma’rifatli avlodi sifatlarini o‘zida tashiydi.

“Uchrashuv” romani qahramonlari Yusuf va Shirinning ilk to‘qnash kelganlarini o‘qigan kitobxon xayoliga birinchi bo‘lib, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni ko‘z oldiga keladi. Ilk uchrashuvda ikki yoshning hushi boshidan tamoman uchishi, Yusufning xatida Shirin tasvirining jozibadorligi, xarakterlardagi o‘xshashlikni to‘ldirib boradi. Bundan ko‘rinadiki, Hamza Alisher Navoiy asarlarini yaxshigina o‘rgangan va Navoiy uslubidan foydalanishga harakat qilgan.

“Yangi saodat” asari bosh qahramoni Olimjon portretini tasvirlashda Hamza uning hissiy kechinmalari ta’rifidan boshlaydi. Otasi bedarak ketgan oilaning yolg‘iz erkak jinsidagi insoni Olimjon bu uydagi og‘irliklarning tarozisini his qiladi. U onasi ishdaligida buvisi va singlisini ortiqcha urintirmaydi. “...Ko‘chaga chiqub yurganda o‘ziga o‘xshagan faqiru yetim bolalar bilagina qo‘shulib yurmog‘i, o‘zidan kichikroq bolalarga qo‘lidan kelganqadar shavqat va marhamat etub, o‘zidan ulug‘ kishilarga yaroshimlik nadab va axloqlar bila boqub, ta’zimu tavozelar bila salom qilub yurmog‘i” mahallaning yoshi ulug‘lari ichida ham o‘z obro‘siga erishishi, Abduqahhorning o‘g‘lidan bu qadar tarbiyani ko‘rganlarda hayratni oshirar edi.

Hamza “Uchrashuv” romanida o‘z uslubini qurishda ham portret ham, peyzaj ana’analariga tayanadi. Ular orqali qahramonlarning ruhiy holati, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ularini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Asar boshidanoq yozuvchi keng peyzaj tasvirini chizadi. “...Endigina bahor bo‘lgangami yerlara turligina yashil o‘lonlar ko‘karub, quyosh yoqtisindan o‘zindagi tabiiy jilolar bila toblanib tura. Daraxtlardagi yangi barglarda subhdagi oz yog‘in suvi bila o‘rnagan chang, g‘uborlari tozorlanub, yoltirab tura.” [5,431] Tasvirdan ko‘rinadiki asar voqealari erta bahorda yerda yashilliklar endi-endi ko‘kara boshlagan paytlarda yuz bermoqda. Bahor yangilanish va yasharish fasli. Demakki, asar qahramonlari hayotida ham yangillanish yuz berishiga tayyorgarlik ko‘rilayotgani anglashiladi. Bu tasvir bahor gullari gulisavsar, lola, seylonlarning hidlari butun bir bog‘ni tutib ketgani qushlarning daraxtlar shohida tinimsiz uchishlari tasviri bilan boyitiladi. Ammo qushlar tasvirida *“...deyarli mungli, dardlik oshiqlar nolasi”* bu biz kutayotgan qahramonning hayotida hozirda yuz berayotgan ishqiy kechinmalar yuz berayotganidandir. Hamza yuqoridagi peyzaj tasviriga obyekt sifatida sokin, kimsasiz bog‘ni tanlagan. Bu ham qahramon ruhyatiga hamohanglik baxsh etadi.

Qahramonimiz madrasa talabasi Yusuf. U bu kun madrasadan chiqmay to‘g‘ri bog‘ga keladi. Uning hozirgi holatida uyda yo madrasada bo‘lish to‘g‘ri kelmaydi. Unga kimsasiz joy kerakki, o‘z his qilayotgan kechinmalarini ro‘yi-rost yashay olsin. *“Ul o‘zi endi yuraklari allanimalar bila qisilgan, fikru xayoli butun torolgan, o‘ylab o‘yina yeta olmaganlikdan o‘zini ovuntirmaq, yuragin bir ozgina bo‘shatmoq uchungina”*

bog‘da o‘tiribdi. Insonning boshidan shunday kunlar o‘tadiki, bu holatni yashab o‘tmasdan o‘tkazib bo‘lmaydi. Yusufning dardi ishq. U o‘z mahbubasi shirin vioslida dardlangan. Qo‘lida kitobi bilan bir ustunga o‘tirib kitob o‘qishga uringan vaqtida *“bir gul ustindagi bulbulg‘agina”* ko‘zi tushadi. Bulbulning qonli ko‘z yoshlari, hasrati Yusufni yana ishq sari chalg‘itadi. Endi ishq bilan kasallangan yurakka kitob mutolaasi malham bo‘la olmaydi. Bir zumda ruhini yo‘qotib, bir joyda tosh kabi qotib qoladi. Shamol kitoblarining varoqlarini uchirib yuborganini sezmaydigan darajaga yetadi.

Shu o‘rinda Hamza peyzaj va portret tasviri qorishiqliligini vujudga keltiradi. Qahramonni bog‘da yolg‘iz qoldirib, dardining davosi bo‘lgan inson Shirinning bog‘ga yetgungacha bo‘lgan holatini tasvirlashga o‘tadi.

“...ul o‘zi endi yoshini o‘n oltig‘a yetuv li bila nechka ko‘nglindan kechalari o‘ylanub-o‘ylanub, bir suyukli bila bo‘luvni havaslanub sezuvundan bu kunda ko‘ngli ko‘p toshqonliqdan yuvungan-tarangan qizlar vazifasi oshiqlarning kuyuk dillarin jazb etuvg‘a eng yaqin shiddatli bir vosita o‘lan qizllik, qoralik kabi pardozlari, momuqdek, yuzlari, kiyik ko‘zi kabi ko‘zlari, oy ustinda marv kabi qoshlarina o‘rnashdurganda...” [5,435] ta’riflarining bari Shiringa atalgan. Bundan ko‘rinadiki Shirinda ham bugungi kunidan kutuv bor, u ham o‘z qalbida kechayotgan o‘zgarishlardan o‘zi hayron. Bu kun o‘ziga oshiqcha e’tibor berganki, bugun baxtini ushrashish payida. Hamza Shirinda barcha balog‘at yoshidagi qizlarda bo‘ladigan o‘zgarishlarni tasvirlagan. Dugonasining uyi tomon ketayotgan Shiringa Abror tashlanib qoladi. Unga ilk quchoq, ilk bo‘sa Abrorning hirsidan keladi. Shirin bu holatda o‘zida nima sodir bo‘layotganini tushunadigan ahvolda emasdiki, u ham o‘zini Yusuf o‘tirgan bog‘ga uradi.

O‘zidagi uyat hissi, ilk bo‘sanining hayajonini yo‘qotishga ulgurmagan Shirin bog‘da orqasini qilib bir joyda tosh qotgan Yusufni ko‘rib ajablanadi. Uni ham Abrorning odami sanarkan, oyoq ostidagi o‘zi uchun atalgan maktubga ko‘zi tushadi. Xatni o‘qigan Shirin bog‘ga kirib kelgan Shirinni tamom unutadi. Hamza Bu Shirin tasvirida o‘zgarish yasaydi. To‘g‘ri bugungi kuni Abror bilan boshlandi, ammo uning haqiqiy hayoti kutilmagan maktub, undagi oshiqona so‘zlar, muhabbat izhori, haqiqiy oshig‘ining mung va nolalari bilan tugadi. Uning avvalgi ruhi uchib ketdi. Endi uning ruhi Yusufning ruhi bilan chambarchas bog‘landi. Uning jasadi tamoman yangilanib, boshqa tuyg‘ular unda hokim bo‘ldi.

Xulosa

Hamza nasriy uslubida voqealarga qahramonlarni olib kirishda darhol uning portretini chizishga e’tibor qaratadi. Bu portretlar tasviridan esa qahramonning asar voqealarida qay o‘rinda, qanday rol o‘ynashini ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi o‘z davrining eng oddiy xalqi hayotini yoritishga qaror qiladi. Ularning turmush tarzidagi o‘zgarishlarni baholar ekan, har bir qahramonni hatti-harakatiga bahosini beradi. Hamza ko‘z oldiga elgan narsani yozib ketavermaydi, balki avval tasvirdagi jumlasini boyitadi. Personajlarni harakatga keltiradi, ularni bir jarayondan ikkinchisiga olib kirishda uslubiy shakllardan unumli foydalanadi. Hamza yaratgan qahramonlar tili xalqchil, voqealar haqiqiy hayotga yaqin. Hamza ma’rifatparvarlik adabiyotida nasriy asarlarining qimmati alohida diqqatga sazovordir. Uning o‘rganilmagan jihatlarini ko‘rib chiqish adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb muammolardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Fitrat. (2009) Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat.
2. Quronov D. (2010) Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr.
3. Болтабоев Ҳ. (1992) Наср ва услуб (услуб муаммосига назарий нигоҳ ва ҳозирги ўзбек насрида услубий изланишлар). – Т.: Фан нашриёти.
4. Ўзбек насри тарихидан. (1982) – Тошкент: Фан нашриёти.
5. Ҳамза. (1988). Тўла асарлар. Тошкент. “Фан” нашриёти.